



ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

# Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

Son 7 Jild 4

**2024**

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

**№ 7 (4) - 2024**

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2024**

## **БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

### **07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:**

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Укташ Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллӣ Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматовиҷ – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллӣ Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллӣ Университети.

Сайдов Сарвар Атабулло ўғли – катта илмий ҳодим, Имом Термизий халқаро илмий-тадқиқот маркази, илмий тадқиқотлар бўлими.

### **08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:**

Карлибаева Раја Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азamat Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўқтамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Саидалоҳоновиҷ – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Ҳатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Ҳамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Кулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

### **09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:**

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Сайдова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, "Tashkent International University of Education" халқаро университети;

Хошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулув Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тибиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

### **10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёрова – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмурадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

#### **12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:**

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Файбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амирор Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судъялар олий кенгаши хузуридаги Судъялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич - юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

#### **13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:**

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети хузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Каюмова Насиба Ашуревна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шоҳида Зайневна - педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Мұхәйё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна - педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

#### **19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Хайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Карамаддиновна – психология фанлари доктори, доцент,

Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;  
Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

#### 22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;  
Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

#### 23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атакулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;  
Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

### ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари**” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

#### Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:  
[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**  
(99) 602-09-84 (telegram).

**07.00.00 – TARIX FANLARI**

*Abduxamidov Islombok*

O'ZBEKISTON AHOLISINING ROSSIYA FEDERATSIYASIDA MEHNAT

MUHOJIRLIGI TARIXI ..... 10-18

*Фарманова Гульнара Комилевна*

ПОДНЯТИЕ МЕТОДИКИ АРХЕОЛОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ НА ОБЩЕМИРОВОЙ

УРОВЕНЬ В СОВРЕМЕННЫХ УСЛОВИЯХ ..... 19-24

*Индиаминова Шоура Амриддиновна*

РАЗВИТИЕ КУЛЬТУРЫ И ИСКУССТВА В САМАРКАНДСКОМ СОГДЕ В ЭПОХУ РАННЕГО

СРЕДНЕВЕКОВЬЯ ..... 25-29

*Mirzakhamdamova Dildora Zafarovna*

XOTIN-QIZLAR BANDLIGINI TA'MINLASHDA FARG'ONA VILOYATIDA

IPAKCHILK ORQALI KASANACHILIK VA UY MEHNATINI RIVOJLANTIRISH ..... 30-35

*Ismoilova Parvina*

TURKISTON MINTAQASIDAGI INSTITUTSIONAL O'ZGARISHLAR: ROSSIYA KAPITALI UCHUN

KANALLARNING SHAKLLANISHI (19-ASR OXIRI - 20-ASR BOSHLARI) ..... 36-41

*Jomurodov Lazizbek Islomovich*

O'ZBEKISTONDA TERI-TANOSIL KASALLIKLARIGA QARSHI KURASH

JARAYONI ..... 42-46

**08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI**

*Назарова Раъно Рустамовна, Нигматуллаева Гульчехра Нуруллаевна*

ОСНОВНЫЕ ФАКТОРЫ, КРИТЕРИИ И ПОКАЗАТЕЛИ, ОБЕСПЕЧИВАЮЩИЕ УСТОЙЧИВОЕ

РАЗВИТИЕ В СФЕРЕ ЭНЕРГЕТИЧЕСКОЙ ОТРАСЛИ ..... 47-54

*Yegamberdiyeva Xurshidaxon Alisherovna*

VAGONLARDAN FOYDALANISHNING SIFAT KO'RSATKICHINI OSHIRISHNI

TADQIQ QILISH ..... 55-61

*Mamadaliyev Ulug'bek*

JAHON TURIZMIDA TUROPERATORLIK FAOLIYATINING RIVOJLANISH HOLATI ..... 62-69

*Jalilov Arslon Xoshimovich*

TEMIR YO'L TRANSPORTINING INNOVASION MUHITDAGI RAQOBATDOSHLIK DARAJASINI

BAHOLASH ..... 70-75

*Kamchibekov Farxod Olimjonovich*

O'ZBEKISTON HUDUDLARINING INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISHDA MAXSUS

IQTISODIY HUDUDLAR VA KICHIK SANOAT ZONALARINING ROLI ..... 76-82

**09.00.00 – FALSAFA FANLARI**

*Djurayev Lukmon Narzullaevich*

ZAMONAVIY O'ZBEKISTON JAMIyatida YOSHLAR IQTISODIY MADANIYATINING

TRANSFORMATSIYALASHUVI ..... 83-87

|   |         |
|---|---------|
| <i>Norkulov Ubaydulla Umarovich</i>   |         |
| МАHALLADA JINOYATLARNI ERTA ANIQLASHDA JAMOATCHILIK NAZORATINI<br>KUCHAYTIRISHNING IJTIMOIY-FALSAFIY MEXANIZMLARI ..... | 88-92   |
| <i>Пулатов Шердор Нематёнович</i>   |         |
| ДОКТРИНА ЛЮБВИ АЛИШЕРА НАВАИ И МАХАТМЫ ГАНДИ .....  | 93-105  |
| <i>Yusupov Murodali Sunnatovich</i>   |         |
| О'ZBEKİSTON QISHLOQ XO'JALIGIDA INNOVATSION TİZİMLARNI QO'LLASHNING IJTIMOIY-FALSAFIY MASALALARI .....                  | 106-110 |
| <i>Suleymanov Sarvar Sunatullayevich</i>  |         |
| О'ZBEKİSTONNING YANGI DAVRGA XOS BO'LGAN MA'NAVIY TEKNOLOGIYALARНИNG<br>IJTIMOIY-FALSAFIY ASOSLARI .....                | 111-116 |
| <i>Shernazarov Ravshan Avazovich</i>  |         |
| SIYOSIY E'TIQOD: UNING TİZIMI VA FUNKSIYASINING FALSAFIY TAHLILI .....  | 117-122 |
| <i>Nasrullahov Ravshanxon Sirojxonovich</i>   |         |
| VATANPARVARLIKNI IJTIMOIY- MADANIY HODISA SIFATIDA AHAMIYATI.....   | 123-126 |
| <b>10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI</b>  |         |
| <i>Matkarimova Salomat Ko'ziyevna</i>   |         |
| ALISHER NAVOIY VA HAYDAR XORAZMIY: MUSHTARAKLIK VA O'ZIGA XOSLIK .....  | 127-133 |
| <i>Tairova Maxfuza Abdusattorovna</i>   |         |
| INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI Dagi MAMLAKATSHUNOSLIKKA DOIR RAMZIY VOSITALARNING<br>TARJIMADA QAYTA IFODALANISHI .....       | 134-139 |
| <i>Rahimova Maftuna</i>   |         |
| LISONIY BELGI VA ASSOTSIATSIYA .....  | 140-143 |
| <i>Umaraliyeva Dildora Taxirjanovna</i>   |         |
| O'ZBEK LATIFALARI, ULARNING TASNIFI VA TO'PLASH BORASIDA OLIB BORILGAN<br>TADQIQOTLAR .....                             | 144-147 |
| <i>Xursanov Nurislom Iskandarovich</i>  |         |
| O'ZBEK FRAZEOLOGIK BIRLIKALARINING PRAGMATIK TAHLILI .....  | 148-154 |
| <i>Umarov Umidjon Akram o'g'li</i>  |         |
| RAMZ AXRETIPLARINING TASNIFLANISHI VA BADIY TAHLILI .....   | 155-159 |
| <i>Облоқурова Шахло Асрор қизи</i>  |         |
| ЗАМОНАВИЙ ЖАҲОН АДАБИЁТИДА ТАОМ ДИСКУРСИ .....  | 160-164 |
| <i>Nazarova Lola Maqsadilla qizi</i>  |         |
| KORPUS LINGVISTIKASI: BNC KORPUSINING FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI .....  | 165-170 |
| <i>Umarxonova Dilafruz Murotjonovna</i>   |         |
| "MARDLIK" VA "QO'RQOQLIK" KONSEPTLARINING AKSIOLINGVISTIK TAHLILI .....   | 171-175 |
| <i>Yunusova Ganjina Rustamovna</i>  |         |
| NAZMDA YO'L XRONOTOPINING BADIY-ESTETIK XUSUSIYATLARI .....   | 176-180 |
| <i>Мусаев Файзулло Оманович</i>   |         |
| АРАБ ДУНЁСИДА "МАСАЛ" ИЛМИНИНГ ВУЖУДГА КЕЛИШИ ВА РИВОЖИ .....   | 181-186 |

|   |         |
|---|---------|
| <i>Ubaydullayeva Dilafruz Fazliddinovna</i>   |         |
| INGLIZ VA O'ZBEK TILIDAGI "ANGER" VA "G'AZAB" ATAMALARINING ETIMOLOGIK VA LEKSIKOGRAFIK TAHLILI .....                                   | 187-192 |
| <i>Narmuratov Zayniddin Radjabovich</i>   |         |
| FRAZEOLIGIK BIRLIKLER KOMPONENTLARI TAHLILI VA ULARNING STRUKTURAVIY MODELLARI .....  | 193-196 |
| <i>Masharipova Nargiza Otaxonovna</i>   |         |
| TARIXIY-BADIY ASARLAR TARJIMASIDA DINIY VA TARIXIY SO'ZLAR TARJIMASI MUAMMOSI .....   | 197-201 |
| <i>Икромова Нигина Ойбековна</i>  |         |
| ПСИХОЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ТРУДНОСТИ ПЕРЕВОДА ЗАГЛАВИЯ ЛИТЕРАТУРНОГО ПРОИЗВЕДЕНИЯ .....   | 202-207 |
| <i>Najmuddinova Mehribul Najmuddin qizi</i>   |         |
| NEGATIVLIKNI IFODALOVCHI TEHNİKAGA OID TERMINLARNING QIYOSIY TADQIQI (INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA) .....                          | 208-213 |
| <i>Eshniyazova Maysara Beknazarovna</i>   |         |
| "NAZMUL JAVOHIR" ASARIDA G'OYAVIY BADIY POETIKA .....   | 214-221 |
| <b>12.00.00 – YURIDIK FANLAR</b>  |         |
| <i>Сайдов Акрам Акмалович</i>   |         |
| ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН ЖАЗОНИ ИЖРО ЭТИШ СИЁСАТИ ҲАМДА УНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ .....   | 222-230 |
| <i>Raimova Nargiza Doroyevna</i>  |         |
| TIJORAT MAXFIY MA'LUMOTLARINI HIMoya QILISH: INTELLEKTUAL MULK HUQUQI SOHASIDAGI QONUNCHILIKNI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI .....     | 231-237 |
| <i>Умурзақов Жасурбек Қосимжанович</i>  |         |
| КРИПТО-АКТИVLAR НОҚОНУНИЙ АЙЛАНМАСИ БИЛАН БОҒЛИҚ ҲУҚУҚБУЗАРЛИКЛАР УЧУН ЖАВОБГАРЛИКНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ .....                              | 238-242 |
| <i>Nurmamatova Noila Doniyorovna</i>  |         |
| KONSTITUTSIYAVIY SUDLOV ORGANI TOMONIDAN FUQAROLAR VA YURIDIK SHAXSLARNING SHIKOYATINI KO'RIB CHIQISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI .... | 243-248 |
| <i>Muxammadjonov Jasurbek Jaxongir o'g'li</i>   |         |
| FUQAROLARNING TADBIRKORLIK BILAN SHUG'ULLANISH HUQUQINING XALQARO VA MINTAQAVIY HUQUQIY KAFOLATLARI .....                               | 249-260 |
| <i>Адилбаев Бекбосын Абатбаевич</i>   |         |
| ФУҚАРОЛИК-ҲУҚУҚИЙ ВАКИЛЛИК ТУШУНЧАСИ, МОҲИЯТИ ВА ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ .....   | 261-267 |
| <i>Турсунбоев Сардор Муроджон ўғли</i>  |         |
| ПРОКУРАТУРА ОРГАНЛАРИ ТИЗИМИДА ТЕРГОВ ТУЗИЛМАЛАРИНИНГ ФАОЛИЯТИНИ ТАШКИЛИЙ-ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ .....                      | 268-275 |
| <i>Mukutov Bobur</i>  |         |
| O'ZBEKİSTON RESPUBLİKASI VA GERMANIYA FEDERATİV RESPUBLİKASIDA TOVAR BELGİLARINI HUQUQIY MUHOFAZA QILISH MASALALARI .....               | 276-282 |
| <i>Nabiev Firuz Xamidovich</i>  |         |
| INTELLEKTUAL MULK SOHASIDAGI XALQARO HUQUQIY NORMLARNI O'ZBEKİSTON  |         |

**RESPUBLIKASI QONUNCHILIGIGA IMPLEMENTATSIYA QILISHDA “MOSLASHUVCHANLIK” KONTSEPTSIYASINING O’RNI .....** 283-289

*Калимбетов Ерназар*

ГРАЖДАНСКИЕ ПРАВА В СФЕРЕ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА: ПОНЯТИЕ, ВИДЫ И СОДЕРЖАНИЕ В КОНТЕКСТЕ АДМИНИСТРАТИВНО-ПРАВОВОЙ ЗАЩИТЫ ..... 290-297

*Ibrohimov Azimjon Abdumomin o’g’li*

KORPORATSIYANI AMALDA BOSHQARUVCHI SHAXSLAR JAVOBGARLIGI ..... 298-306

*Ходжаева Ширин*

ТЕОРЕТИКО-ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ РИСКОВ, СВЯЗАННЫХ С ПРЕДДОГОВОРНЫМИ ОТНОШЕНИЯМИ ..... 307-317

*Маматкулов Камолиддин Галабаевич*

ТАҚИҚЛАНГАН ЭКИНЛАРНИ ЕТИШТИРИШ БИЛАН БОҒЛИҚ ЖИНОЯТЛАРНИ ТЕРГОВ ҚИЛИШДА ИСБОТЛАНУВЧИ ҲОЛАТЛАР ВА УЛАРНИГ АҲАМИЯТИ ..... 318-323

### **13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI**

*Nazarova Ra’no Sidiq qizi*

HUQUQBUZARLIKKA MOYIL BO’LGAN BOLALARDA O’Z-O’ZINI NAZORAT QILISH KO’NIKMASINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI ..... 324-329

*Fayzullayeva Gulchexra Sharipboevna*

UMUMIY O’RTA TA’LIM MAKTAB O’QITUVCHISI KASB STANDARTINING MAZMUN TAHLILI ..... 330-341

*Hamidova Laylo Kamildjonovna*

OLIY PEDAGOGIK TA’LIMDA ARALASH O’QITISH MODELLARIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI ..... 342-346

*Ajiniyazova Sholpan Saparniyazovna, Uteniyazov Karimbay Kuanishbaevich*

MAKTABDA KIMYOVIY MASALALARNI ECHISH BO’YICHA MASHG’ULOTLARNI TASHKIL ETISH SHAKILLARI ..... 347-357

*Rasulova Dilafruzxon Sharobiddin qizi*

GLOBAL PEDAGOGIK SAVODXONLIKNI RIVOJLANTIRISHDA TALABALAR KOMPETENSIYASIGA METODIK YONDASHUVLAR ..... 358-363

*Kenjaboyev Sharifjon Shuxrat o’g’li*

INDIVIDUAL-KABIY RIVOJLANISH – PEDAGOGLIK KASBI TARBIYASINING

AJRALMAS QISMI SIFATIDA ..... 364-369

*Jalilov Umidjon Jahongirovich*

OG’IR ATLETIKA MASHQLARINING AMALGA OSHIRISH USLUBIYATI ..... 370-375

*Najmiddinova Gulnora Najmiddin qizi*

OLIY TA’LIM TIZIMIDA SUN’IY INTELLEKT TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

MEXANIZMLARI ..... 376-381

**Received:** 30 June 2024

**Accepted:** 5 July 2024

**Published:** 15 July 2024

*Article / Original Paper*

## **DEVELOPMENT OF HOMEWORK AND HOMEWORK THROUGH SILK IN FERGANA REGION TO ENSURE EMPLOYMENT OF WOMEN AND GIRLS**

**Mirzakhamdamova Dildora Zafarovna**

Teacher of the department of History of Kokand State Pedagogical institute.

**Abstract.** This article shows that through the development of the sericulture sector in Uzbekistan, including in the Fergana region, the development of the cocoon cluster, as a result of which, it has been achieved to ensure the employment of domestic workers, domestic labor and women in silkworm feeding, and the creation of seasonal and permanent jobs for the population. based on sources and statistics.

**Key words:** Household, domestic work, women's employment, sericulture, cocoon cluster, seasonal jobs, permanent jobs, additional income.

## **XOTIN-QIZLAR BANDLIGINI TA'MINLASHDA FARG'ONA VILOYATIDA IPAchkILk ORQALI KASANACHILIK VA UY MEHNATINI RIVOJLANTIRISH**

**Mirzakhamdamova Dildora Zafarovna**

Qo'qon DPI "Tarix" kafedrasи o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqola O'zbekistonda jumladan Farg'ona viloyatida ipakchilk sohasini rivojlantirish orqali, pillachilk klasterining rivojanishi buning natijasida ipak qurtini boqishda kasanachilk, uy mehnati va xotin-qizlar bandligini ta'minlashga erishilganligi, aholiga mavsumiy va doimiy ish o'rinalarining yaratilishi to'g'risida manbalar va statistik ma'lumotlarga tayangan holda yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Kasanachilk, uy mehnati, xotin-qizlar bandligi, ipakchilik, pillachilik klasteri, mavsumiy ish o'rirlari, doimiy ish o'rirlari, qo'shimcha daromad.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I7Y2024N04>

**Kirish.** O'zbekistonda xotin qizlarni huquqiy, iqtisodiy va ijtimoiy himoyalash, ular uchun qulay shart-sharoitlar yaratish masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yangi bosqichga ko'tarishga qaratilgan innovatsion yondashuvlarda xotin-qizlarning bandligini ta'minlashga alohida ahamiyat qaratilgan [1-1-bet]. Prezidenti Sh. Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan beshta tashabbus asosida yurtimizda keng ko'lamlı ishlар amalga oshirildi. Jumladan, xotin-qizlar manfaatlarini ta'minlash, yillar davomida ularni qiyab kelgan ijtimoiy muammolarni bartaraf etish, ayollar bandligimi oshirish bo'yicha aniq vazifalar belgilangan. Chunki ishsizlik oqibatida ayollar o'zga yurtlarga ish izlab ketib, farzandlari qarovsiz qolayotgani, o'zlari esa chet ellarda og'ir qiyinchiliklarga duchor bo'lar edi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi.** Yurtimiz o‘z mustaqilligiga erishgach barcha sohalar kabi xotin-qizlarga bo‘lgan munosabatdagi tarixiy haqiqatni tiklash borasidagi ijtimoiy fanlarning barcha sohalarida ham ilmiy tadqiqotlar olib borish imkoniyatlari tug‘ildi. Ijtimoiy ishlab chiqarishda band bo‘lgan ayollar mehnatining xalq xo‘jaligi turli sohalari bo‘yicha taqsimlanishi, xotin-qizlarning tadbirkorlik faoliyatini shakllantirish hamda rivojlantirish masalalari iqtisod yo‘nalishidagi ilmiy tadqiqotlarda [9-24-25-b] aks ettirilgan. Shuningdek, tarixiy yo‘nalishidagi tadqiqotlarda ayollar bandligi, sanoat va qishloq xo‘jaligida qo‘l mehnati bilan mashg‘ul ayollar ulushining yuqoriligi, ularni mehnatga jalb etish respublikada bir tekisda emasligi, ularning iqtisodiy islohotlardagi ishtiroki, davlat boshqaruvi va oilada ayollar mavqeyi, gender tengligi kabi muammolar hujjatli materiallar asosida ochib berilgan [6-37-b ].

Garchi tadqiqotlarda iqtisodiyotning real sektori, ya’ni kichik biznes va tadbirkorlik hamda qo‘l mehnati va uy mehnati, kasanachilikdagi xotin-qizlar faoliyatiga e’tibor qaratilgan bo‘lsa-da, bugungi kungacha jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi ishtiroki viloyatlar kesimida to‘laqonli ochib berilgan ilmiy tahlillar mavjud emas.

O‘zbekiston xotin-qizlarining o‘zbek modeliga asosan bozor munosabatlariga o‘tish sharoitidagi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlardagi faol ishtiroki rossiyalik olimlar M.Gafarli va A.kasayev tomonidan o‘rganilgan. Ular o‘z tadqiqotlarida O‘zbekistonda xotin-qizlarga davlat davlat tomonidan ko‘rsatilayotgan e’tibor, g‘amxo‘rlik hamda imtiyozlar ularning jamiyat hayotidagi faolligini ta’minalashga xizmat qilayotganligini e’tirof etadilar. O‘zbekistonda ayollarni ijtimoiy himoyalash borasida har yili mulkchilik shaklidan qat‘iy nazar har bir korxona va ishchilar jamoasining ma’muriyati bilan kasaba uyushma qo‘mitasi o‘rtasida bitimlar hamda jamoa shartnomalari tuzilishi, ularda ayollarga mehnatni onalik bilan qo‘sib olib borish imkonini beruvchi sharoit yaratish, mehnat sharoitini yaxshilash, qo‘l mehnatini yengillashtirish, ayollarga uyda o‘tirib ishlashlariga ham imtiyozlar berish to‘g‘risida qabul qilingan qonunlarni bajarish, homilador va nogiron farzandi bo‘lgan ayollarni, ko‘p bolali onalarni himoyalashda qonunlarga rioya etish nazarda tutilishi alohida ta’kidlanadi. Tadqiqotchilar G‘arbning ko‘pgina davlatlarida Sharq urf-odatlari haqidagi an‘anaviy tasavvurlar natijasida noto‘g‘ri xulosalar mavjudligini bayon etib, xotin-qizlar masalasida O‘zbekistonda olib borilayotgan siyosatga ijobjiy baho bergenlar [7-252-b].

**Asosiy qism.** Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so‘ng, ipakchilik tarmog‘ida iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirishga, xorijiy investitsiyalarni jalb etish uchun qulay shart-sharoitlarni shakllantirishga, yangi korxonalar qurish va mavjudlarini modernizatsiyalashga, jahon bozorida xaridor va raqobatbardosh tayyor mahsulot ishlab chiqarish hajmlarini oshirish va ularning turlarini ko‘paytirishga qaratilgan keng ko‘lamli tarkibiy o‘zgartirishlar amalga oshirildi[3]. Yurtimizda qishloq xo‘jaligi, ayniqsa, pillachilikni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bundan 15-20 yil oldin respublikamizda bir yilda bir marotaba pilla yetishtirilgan bo‘lsa, sohada amalga oshirilgan islohotlar natijasida bir yilda 3-4 marta ipak qurti boqilmoqda. 2017-yildan buyon yo‘lga qo‘ylgan bu samarali usul nafaqat “kumush tola” xirmoni yuksalishiga balki, kasanachilik orqali ishsiz aholi ayniqsa uyda o‘tirgan ayollar-qizlar doimiy daromad manbaiga ega bo‘lmoqda[2-56-bet].

Respublika Xotin-qizlar qo‘mitasi matbuot xizmatining xabariga ko‘ra 2018 yilning 5 oyi davomida yurtimizda 131 mingdan ortiq xotin-qizlarning bandligi ta’minlangan. Manba bergen xabarga ko‘ra, mamlakatimizda 2018-yilning boshiga qadar 168 ming 634 nafar ishsiz xotin-qizlar borligi aniqlanib, ulardan 131 ming nafardan ziyodi doimiy va mavsumiy ish bilan

ta'minlangan. Jumladan, 29 ming 785 nafari xotin-qizlar joylardagi korxona-tashkilotlarga, 8ming 679 nafari oilaviy tadbirdorlik, shuningdek, ipak qurti parvarishlashda kasanachi bo'lib jalb etildi [5].

So'nggi yillarda respublikada pillachilik sohasini rivojlantirish, ishlab chiqariladigan mahsulotlarning turlarini kengaytirish, shuningdek pillachilik tarmog'i korxonalarining eksport va investitsiya faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar pilla xomashyosi yetishtirish hajmini oshirish, uni qayta ishlash hisobiga eksportbop ipak mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish, shuningdek, respublikamizning chekka hududlaridagi aholi, ayniqsa ayollar bandligini ta'minlash imkonini berdi[4].

### **Pillachilk klasterini tashkil etadigan "O'zbekipaksanoat" uyushmasi tarkibidagi Farg'ona viloyatida mavjud korxonalar**

|          | <b>Pillani qayta ishlash korxonalar nomi</b>   | <b>Biriktirilgan hududlar nomi</b>                          |
|----------|--|---|
| <b>1</b> | "Nurli tong silk" ma'suliyati cheklangan jamiyati  | O'zbekiston<br>Qo'shtepa<br>Furqat<br>Quvasoy sh<br>Rishton |
| <b>2</b> | "Beshariq ipagi" mas'uliyati cheklangan jamiyati   | Beshariq  |
| <b>3</b> | "Dang'ara ipagi" mas'uliyati cheklangan jamiyat  | Dang'ara  |
| <b>4</b> | "Silk word Buseness" masu'liyati cheklangan jamiyat  | Bag'dod   |
| <b>5</b> | "Kapital investkom" mas'uliyati cheklangan jamiyat qoshidagi "Vodil ipak yigiruv" shu'ba korxonasi | Farg'ona<br>Farg'ona sh<br>Quva<br>Buvayda                  |
| <b>6</b> | "Toshloq silk" masu'liyati cheklangan jamiyati   | Toshloq<br>Yozyovon   |
| <b>7</b> | "Vodiy marjon" xususiy korxonasi   | So'x  |
| <b>8</b> | "Uchko'prik ipagi" masu'liyati cheklangan jamiyati   | Uchko'prik  |

Yurtimizda ipakchilik sohasida olib borilgan islohotlar natijasida Farg'ona viloyatida tutzorlar yildan yilga kengaytirildi. Xususan, 2017 yilda 31,9 hektar yangi tutzorlar tashkil etilgan bo'lsa, 2020 yilga kelib bu ko'rsatkich 432,5 hektarga ko'paygan. 2021 yilda esa viloyatda 492 hektar yangi tut plantatsiyalari barpo etilgan. Viloyatda 2020 yilda pillachilik

korxonalaridan 6 mln 965 ming AQSH dollaridan ortiq ipak va ipakchilik mahsulotlari eksport qilingan. Bu yo'nalishda ish olib borayotgan "Nurli tong silk", "Beshariq ipagi", "Dang'ara ipagi", "Silk word Business", "Vodil ipak yigiruv", "Sayqali zamin", "Uchko'prik ipagi", "Toshloq silk", "Yozyovon silk vats" MCHJ korxonalarini va pillachilik klasterlarida kasanachilik asosida yangi ish o'rnlari yaratildi [10-23-b].

Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2022 yilning yanvar-sentyabr oylarida respublika bo'yicha jami 24,2 ming tonna pilla xom-ashyosi tayyorlangan. Bu o'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda 6,4 % ga oshgan.

### **Hududlar kesimida yetishtirilgan pilla xom-ashyosi hajmi.**

| <b>Viloyatlar kesimida</b> | <b>Tonna</b> |
|----------------------------|--------------|
| Qoraqalpog'iston           | 802,1        |
| Andijon                    | 3 115,2      |
| Buxoro                     | 2 574,4      |
| Jizzax                     | 802,7        |
| Qashqadaryo                | 2 295,8      |
| Navoiy                     | 1 022,2      |
| Namangan                   | 2 031,5      |
| Samarqand                  | 3 122,6      |
| Surxondaryo                | 1 832,1      |
| Sirdaryo                   | 665,6        |
| Toshkent                   | 1 710,4      |
| Farg'ona                   | 2 241        |
| Xorazm                     | 2 015,3      |
| <b>Jami</b>                | <b>24,2</b>  |

Prezidentimiz ilgari surgan beshta tashabbusdan biri ayollarning bandligini ta'minlash orqali ularga to'laqonli turmush sharoit yaratib berishga qaratilgan. Ushbu tashabbusni amalga oshirish uchun "O'zbekpaxtasanoat" aksiyadorlik jamiyati va "O'zbekipaksanoat" uyushmasi tomonidan har bir tumanda yengil konstruksiyali tikuv-trikotaj korxonalarini tashkil etish va ayollarni band etish ko'zda tutilgan.

"O'zbekipaksanoat" uyushmasi tomonidan ham Farg'ona viloyatida mavsumiy va doimiy ish o'rnlari yaratilgan. Uyushma pilla yetishtirishdan to tayyor mahsulot chiqarishgacha bo'lgan jarayonni klaster usulida tashkil etish orqali ipak mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish yo'lga qo'yilgan. Bu ham xotin-qizlarni mehnatga jalb etishda katta imkoniyat yaratdi. Uyushma tomonida 2019-yilda Farg'ona viloyatida xotin-qizlarni kasanachilikka jalb etish orqali 2019-yilda 30 ming ish o'rni yaratildi.

Bir mavsum davomida ipak qurti boquvchi kasanachilarga bir yillik mehnat stagi yoziladi. Ilgari qurt boquvchi kasanachilarga na maosh to'langan, na mehnat stagi yozilgan bo'lsa, hozir ayollar kasanachi sifatida uyida o'tirib ipak qurti boqsa ham ularga mehnat stagi yoziladi.

2021-yilda Farg'ona viloyatining So'x tumanida dastlabki pillachilik klasteri tashkil etildi. Dastlab "Oftobro" mahalla fuqarolar yig'inidagi ishsiz ayollarning 17 nafari bilan kasanachilik asosida ularning bandligini ta'minlash uchun ipak qurtini boqishga doir shartnomaga soha vakillari bilan tuzildi.

Viloyatning Rishton tumani "Qo'rg'oncha" mahalla fuqarolar yig'inida, mavsumda fermer xo'jaliklari va kasanachilar tomonidan 12 quti ipak qurti parvarish qilindi., shu tariqa 26 nafar xotin-qizlarning bandligi ta'minlanib, oilaviy daromadi o'sishiga erishildi. Tuman bo'yicha 420 quti ipak qurti urug'lari tarqatilgan bo'lib, har bir qutidan 40 kilo pilla yetishtirish rejalashtirilgan edi. Ushbu rejaga ko'ra 830 nafar kasanachilarning bandligi ta'minlandi.

Aholi bandligini ta'minlash va ularga doimiy daromad manbaini yaratish maqsadida viloyatida aynan pillachilik sohasida kasanachilik asosida ish o'rirlari tashkil etilgan bo'lib, 2022 yilning pilla yetishtirish kuz mavsumida Farg'ona viloyatida 5 ming 870 quti ipak qurti parvarishlanishi rejalashtirilgan edi. Joriy yilda 97 ming nafardan ziyod ishsizlar bandligi ta'minlandi, kasanachilik shartnomalari tuzildi hamda 28 ta inkubatoriyalarda ipak qurti urug'lari jonlantirilib, kasanachilarga tarqatildi. 2023-yilda ushbu ko'rsatkichni 100 mingdan oshirish ko'zda tutilmoqda.

**Xulosa.** Hozirgi kunga kelib yurtimizda kasanachilikni tashkil etgan korxonalar uchun ham va kasanachilik bilan shug'ullanadigan aholi uchun ham bir qancha imtiyozlar yaratib berilmoqda. Jumladan, tovarlar (ishlar,xizmatlar) ishlab chiqarish bo'yicha kasanachilarga buyurtma beradigan korxonalar 2006-yil 1 fevraldan boshlab 5 yil muddatga mehnat shartnomasi asosida kasanachilarga to'lanadigan mablag'larga teng miqdorda, mehnatga haq to'lash fondidan yagona ijtimoiy to'lovni to'lashdan ozod qilingan bo'lsa, Prezident Sh. Mirziyoyevning PQ-224-son 26.04.2022 yilda qabul qilingan qaroriga ko'ra, ipak qurti urug'i, tut ko'chatlari va pilla yetishtirish, pillani qayta ishlash va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish bilan shug'ullanish subyektlar, mahsulotlarini qayta ishlash korxonalari uchun ko'zda tutilgan soliq va bojxona to'lovlar bo'yicha imtiyozlar 2023 yil 1 yanvardan 2026 yil 1 yanvarga qadar uzaytirildi [8-52-b].

2022-yilda Farg'ona viloyatidagi pillachilik klasterlari tomonidan 9 million 254 ming AQSH dollariga teng qayta ishlangan ipak xom-ashyosi eksport qilindi. Viloyatda "kumush tola" yetishtirishni yangi bosqichlarga olib chiqish, ipak qurti uchun ozuqa bazasini mustahkamlash, kasanachilik istagida bo'lgan aholiga ayniqsa xotin-qizlarga uyda o'tirib ishlashlari uchun sharoit yaratishga katta e'tibor qaratilmoqda. Yurtimizda bir yilda bir marotaba pilla yetishtirilar va bu jarayonda aholi bor-yug'i 35-40 kun band bo'lar edi. Bugungi kunda esa pilla yetishtiruvchi kasanachilar sohada 7 oydan 12 oygacha davr mobaynida uzlusiz mehnat qilib, daromad topmoqda.

#### Адабиётлар/Литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni: O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida //Xalq so'zi, 2017 yil 8 февраль.
2. Mirziyoev Sh.M. Ozod va obod, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - Toshkent: "Uzbekiston, 2016. - 56 bet.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори, 12.01.2018 йилдаги ПҚ-3472-сон. Республикада ипакчилик тармоғини янада ривожлантириш чора-тадбирлари түғрисида. Lex.UZ.

4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори, 31.07.2019 йилдаги ПҚ-4411-сон. Пиллачилик тармоғида чуқур қайта ишлашни ривожлантириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида.
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Хотин-қизларни қўллаб-қувватлаш ва оила институтини мустаҳкамлаш соҳасидаги фаолиятни тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5325-сонли Фармони //Халқ сўзи, 2018 йил 3 февраль.
6. Бобожонова Д. Аҳолини иш билан таъминлаш ва миллий ишчи кадрлар тайёрлаш. – Тошкент: Абу Райҳон Беруний номидаги ТДТУ, 1995.– 37 б.;
7. Гафарли М., Касаев А. Ривожланишнинг ўзбек модели: тинчлик ва барқарорлик – тараққиёт асоси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2001. – Б.252.
8. Mirzahamdamova D.Z.. O'zbekistonda kasanachilkni rivojlantirishning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi ahamiyati. O'tmishga nazar, 49-b, 2019, №6.
9. Тўқаева З. Ўзбекистон хотин-қизлари қишлоқ хўжалигида. – Тошкент, 1991 – 22 б.; Ирисова М. Занятность женщин Узбекистана в условиях перехода к рыночным отношениям. Автореф. дисс...канд. экон.наук.–Ташкент, 1995–23 с.; Убайдуллаева Р. Ўзбекистон: бозор муносабатларига ўтиш шароитида аёллар ва меҳнат//Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. –Тошкент, 1995. – №9..
10. Manba. Farg'ona viloyati Bandlikka ko'maklashish bosh boshqarmasi axboroti. 2017-2021 yillar.

**SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

**Nº 7 (4) – 2024**

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг  
долзарб муаммолари**” электрон  
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-  
сонли гувоҳнома билан давлат  
рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
маъсулити чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой  
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-  
уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).